

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAHSINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonova Yulduz Jamshid qizi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar

11-sonli DMTTtarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi pedagogik jarayonlarda o'yinning tutgan o'rni, o'yindan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, o'yin texnologiyasi, tarbiya vositasi, talab va ehtiyoj, ruhiy vitamin, pedagog.

Аннотация: В данной статье говорится о роли игры в педагогическом процессе дошкольных образовательных организаций, о широком использовании игры в воспитании детей и их обучении.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая технология, образовательное средство, потребность и востребованность, духовный витамин, педагог.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi pedagogik jarayonlarda o'yinning tutgan o'rni alohida bo'lib, o'yindan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namayon bo'ladi.

-o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

-o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

-o'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning metod va usulidir;

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida katta o'rin egallaydi. O'yinda yosh organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlilik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalashda o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli pedagog va shifakor E.A.Arkin o'yinni "ruhiy vitamin" deb bekorga aytmagan. Bolalarning to'laqonli jismoniy rivojlanishi va sog'lig'ini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O'yin jarayonida bolaning jismoniy jihatdan o'sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Bunga erishmoq uchun o'yinlarning bolalarga yetarli suratda zavq tug'dirishini, ularda faollik hosil bo'lishini, bu o'yinlar turli xil xarakatlarni o'z ichiga olishini, serharakat o'yinlar ketidan kam harakatli o'yinlarga o'tilishini ta'min etmoq zarur. Harakatli o'yinlarda – bolalarda

quvnoqlikni oshirishga yordam beriladi, o'zaro malakalari, jasurlik, odillik kabi ahloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

Mashg'ulot, sayr va kunning turli jarayonlarida amalga oshiriladigan harakatli o'yinlar bola shaxsi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Yusupova R. ""Maktabgacha tarbiya pedagogikasi"" T. ""O'qituvchi 1993""y
2. Xasanboyeva O. ""Maktabgacha ta'lim pedagogikasi"" T. ""Ilm ziyo"" 2006y
3. Sodiqova Sh. ""Maktabgacha pedagogika"" T. ""Tafakkur bo'stoni"" 2013y
4. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon 2017